

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
“TARMOQLAR IQTISODIYOTI” KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK:33M:330.3(575.1)

FAYZIEV ZOKIRJON O‘TKIR O‘G‘LI

**ERKIN IQTISODIY ZONALARDA RAQOBATBARDOSH
MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH VA EKSPORTNI
RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

**70310102 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” mutaxassisligi
bo‘yicha**

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**


DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent A.A.Yadgarov

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 28 - sonli bayonnoma « 24 » 04 2023 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. A.Yadgarov


imzo

15.05.2023

sana

Magistr:

Z.Fayziev


imzo


15.05.2023

sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil " 18 " 05
№ 1/08 raqami bilan ro'yxatga olingan

"Himoyaga ruxsat etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasini
mudiri dots. I.Xotamov


" 03 " " 05 " 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida
2023 yil " 18 " 05 soat " 10⁰⁰ " da bo'ladi.

Annotatsiya

Barqaror rivojlanish strategiyasiga asosan belgilangan vazifalarga muvofiq: milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni, shuningdek hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish asosida mamlakat sanoatini rivojlantirish strategiyalarini (modellarini) ishlab chiqish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirish sohasida davlat siyosatini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Erkin iqtisodiy hududlarda kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, ularning ishtirokchilari uchun faoliyat yuritish sharoitlarini sifat jihatidan yaxshilash va mahsulotlarni sotishga ko'maklashish, investitsiyalar jalb qilinishini faollashtirish, avvalambor foydalanilmayotgan, faoliyat yuritmayotgan ishlab chiqarish maydonlari negizida tashkil qilinayotgan importbop mahsulotlarni chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarning joriy etilishini jadallashtirish, ushbu asosda yangi turg'un ish joylari tashkil etilishini ta'minlash va aholi daromadini oshirish maqsadida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida davlat muassasasi shaklidagi kichik sanoat zonalarini boshqarish bo'yicha yagona direksiyalar tashkil etildi.

Magistrlik dissertatsiyasida erkin iqtisodiy zonalarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportni rivojlantirish, ularning ishtirokchilari uchun faoliyat yuritish sharoitlarini sifat jihatidan yaxshilash bo'yicha taklif etilayotgan nazariy va amaliy tavsiyalarning asoslanganligi hisoblanadi va ular quyidagilarda namoyon bo'ladi: iqtisodiy zona majmuasida yangi strategiyalarni joriy etish hamda innovatsion ishlab chiqarish muhitini kuchaytirish, investitsiyalar jalb qilinishini faollashtirish.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy hududlar, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshli, diversifikatsiya, ishlab chiqarish kuchlari, sanoatini rivojlantirish strategiyalari, investitsiya siyosati, kichik sanoat zonalarini.

Abstract

In accordance with the tasks defined based on the strategy of sustainable development: to increase the competitiveness and diversification of the national economy, as well as to ensure the harmony of the development of regions and sectors, the strategies (models) for the development of the country's industry based on the effective deployment of production forces, the effective use of the existing natural and economic resources of the regions development is one of the main tasks.

Development and implementation of the state policy in the field of socio-economic and industrial development of the country, as well as the strategy of the investment policy of the Republic of Uzbekistan, is one of the urgent issues.

Further improvement of the system of coordination and management of the activities of small industrial zones in the free economic zones, improvement of the working conditions for their participants in terms of quality and assistance in the sale of products, activation of the attraction of investments, production of imported products organized primarily on the basis of unused and non-functioning production areas. in order to accelerate the introduction of modern productions, to ensure the creation of new stable jobs on this basis and to increase the income of the population:

Unified directorates for the management of small industrial zones in the form of a state institution were established in the Republic of Karakalpakstan, regions and the city of Tashkent.

The theoretical and practical recommendations proposed in the master's thesis on the development of production and export of competitive products in free economic zones, as well as the qualitative improvement of operating conditions for their participants, are considered, and they are manifested in the following: the introduction of new strategies in the complex of economic zones and innovative strengthening the production environment, activating the attraction of investments.

Key words: free economic zones, competitiveness of the national economy, diversification, production forces. industry development strategies, investment policy, small industrial zones.

MUNDARIJA

I BOB. KIRISH.....	8
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	11
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	12
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	12
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	14
2.1. Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari.....	14
2.2. Tadqiqot gipotezasi.....	40
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	41
3.1. Ma'lumotlar manbalari.....	41
3.2. Tadqiqot dizayni.....	41
3.3. Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar.....	42
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	42
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	43
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	43
IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALAR.....	44
4.1. Erkin iqtisodiy zonalarda tovarlar raqobatbardoshligini ta'minlash asosida eksportni rivojlantirish holati.....	44
4.2. Erkin iqtisodiy zonalarda eksportni rag'batlantirish masalalari.....	52
4.3. Erkin iqtisodiy zonalarda tovarlar diversifikatsiyasini ta'minlash - raqobatdoshlikni oshirish yo'llari.....	57
4.4. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	72
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR.....	72
5.1. Tadqiqotning asosiy ilmiy - amaliy yangiligi va natijalari.....	72
5.2. Tadqiqot natijasida keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	72
5.3. Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	73

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Shiddatli raqobat muhiti sharoitida respublikamiz iqtisodiyotida davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor prinsiplari va mexanizmlarini keng joriy qilish, shuningdek aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti» g'oyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash. Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish" ga qaratilgan talablaridan kelib chiqib, erkin iqtisodiy zonalarda tovarlar raqobatbardoshligini ta'minlash asosida eksportni rivojlantirishning yangi mexanizmlarini amalga oshirish masalalari belgilab berildi¹.

Barqaror rivojlanish strategiyasiga asosan belgilangan vazifalarga muvofiq: milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni, shuningdek hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish asosida mamlakat sanoatini rivojlantirish strategiyalarini (modellarini) ishlab chiqish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirish sohasida davlat siyosatini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5841063>.